

**“KELINOY” DOSTONI VA VARIANTLARI****Rajabov Xayrulla Ramazonovich**<https://doi.org/10.5281/zenodo.14543332>

**Annotatsiya.** Mazkur maqola “Kelinoy” dostoni va uning turli variantlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda dostonning kollektiv ijod mahsuli ekani, tarixiy asoslari, folkloristik xususiyatlari va tematik jihatlari muhokama qilingan. Xususan, O. Sobirov, Xodi Zarifov va J. Qobilniyozov kabi olimlarning fikrlari asosida dostonning yaratilishi va tarqalishi jarayonlari, uning bosh qahramonlari obrazi, epik an‘analarning rivoji va transformatsiyasi haqida batafsil tahlil keltirilgan. Shuningdek, dostonning xalq qo‘shiqlari va boshqa epik janrlardan kelib chiqishi, davr talablariga mos ravishda o‘zgarishi va interpretatsiya qilinganligi xususida ham fikr yuritiladi. Maqola dostonning turli geografik hududlarda tarqalgan variantlari va ularning mazmun-mohiyati bo‘yicha tadqiqot olib borish zarurligini ta’kidlaydi.

**Kalit so‘zlar:** “Kelinoy” dostoni, O‘zbek folklori, epik an‘analar, xalq qo‘shiqlari, tematik tahlil, folkloristik tadqiqotlar, doston variantlari, tarixiy asoslar, baxshilik san’ati, O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.

**"KELINOY" EPOCH AND VARIANTS**

**Abstract.** This article is devoted to the analysis of the "Kelinoy" epoch and its various variants. It discusses the fact that the epoch is a product of collective creativity, its historical foundations, folkloristic features and thematic aspects. In particular, based on the opinions of such scholars as O. Sobirov, Khodi Zarifov and J. Qobilniyozov, a detailed analysis is provided of the processes of creation and dissemination of the epoch, the image of its main characters, the development and transformation of epic traditions. It also considers the origin of the epoch from folk songs and other epic genres, its transformation and interpretation in accordance with the requirements of the era. The article emphasizes the need to conduct research on the variants of the epoch spread in different geographical regions and their content and essence.

**Keywords:** "Kelinoy" epic, Uzbek folklore, epic traditions, folk songs, thematic analysis, folkloristic research, epic variants, historical foundations, Bakhshi art, Uzbek folk oral art.

**ЭПИЗОД И ВЕРСИИ "НЕВЕСТА"**

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу эпоса «Келиной» и его различных вариантов. Обсуждалось то, что эпос является продуктом коллективного творчества, исторические основы, фольклорные особенности и тематические аспекты. В частности, на основе мнений таких учёных, как О. Собиров, Ходи Зарифов и Ж. Кабильниязов, детальный анализ процессов создания и распространения эпоса, образа его главных героев, развития и трансформации эпоса. представлены традиции. Считается также, что эпос произошёл от народных песен и других эпических жанров, изменённых и

интерпретированных согласно требованиям времени. В статье подчеркивается необходимость проведения исследования вариантов распространения эпоса в разных географических регионах и их содержания.

**Ключевые слова:** эпос «Келиной», узбекский фольклор, эпические традиции, народные песни, тематический анализ, фольклористика, варианты эпоса, исторические основы, искусство бакишиша, узбекское народное искусство.

---

O'zbek xalqining boy ma'naviy merosi, uning og'zaki ijod namunalarida o'z aksini topgan bo'lib, milliy o'zlik va tarixiy xotirani aks ettiruvchi muhim manbalardan biridir. Xalq dostonlari bu merosning o'ziga xos qismi bo'lib, ular asrlar davomida avloddan avlodga o'tib, o'zbek xalqining estetik didini, axloqiy qadriyatlarini va ijtimoiy qarashlarini shakllantirib kelgan. "Kelinoy" dostoni, ayniqsa, o'zbek xalqining epik an'analari va baxshilik san'ati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda xalqning tarixiy hayoti, ijtimoiy muammolari va insoniy fazilatlarini o'z ifodasini topgan.

O.Sobirov birinchi bo'lib "Kelinoy" dostonining kollektiv ijodi mahsuli ekanligini o'rinli qayd etadi. Xodi Zarifovning tadqiqotida esa bu masala yanada konkratiroq ko'rinishga ega. Bunda u ikki voqea yangi dostonlarining, xususan "Kelinoy" dostonining o'ziga xos xususiyatlarini to'g'ri belgilab beradi. J.Qobilniyozov 1969-yilda nashr etilgan "O'zbek sovet folklorining rivojlanish yo'llari" monografiyasida barcha sovet davri dostonlari bilan birga "Dastagul", "qoraqum", "Amr qochdi", va "Kelinoy" dostonlarining tematikasi va go'yaviy yo'nalishi haqida birmuncha foydali fikrlar bildirgan. Ammo tadqiqotchi "Amr qochdi", "Qoraqum", "Dastagul", dostonlari haqida to'g'ri mulohaza yuritgan bo'lsa ham "Kelinoy" dostoni haqida gapirib uni bosmachilikka qarshi kurashni aks ettiruvchi asar degan xulosaga keladiki, bizningcha bu yetarli emas. Chunki "Kelinoy" ildizlari XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga borib taqaladi. Ko'pchilikning bir yoqlama xulosaga kelishiga "Kelinoy" dostonlarining barchasi kompleks ravishda o'rganilmaganligi sabab bo'lgan. Shuning uchun ham Xodi Zarifov o'zining "O'zbek sovet folkloristikasi tarixidan" nomli maqolasida: "30-yillar boshlarida Surxondaryoda xalq baxshilari bir o'zbek qizi hayotida sodir bo'lgan real faktlar voqea va hodisalar asosida doston formasida "Kelinoy" nomida qo'shiqlar to'qiy boshlaydilar" degan fikrni aytadi.

"Kelinoy" dostonining 1962-yilda nashr etilishi asarning ko'pchilik o'quvchilar ommasiga tanishtirilishida va o'rganishda juda katta ahamiyatga bo'ldi. Nashrda keltirilgan kelinoy madhi haqidagi, uning portretini chizishga bag'ishlangan to'rtliklar badiiy yuksak, xalqning ijod laboratoriyasida qaynab etilgan go'zal misralardir. Bu to'rtlik misralar faqat adabiyotimizni emas, etnografiya, tarix, geografiya va urf-odatlarimizni o'rganishda ham qimmatli material beradi.

Ularda Bir o'zbek qizining go'zal qiyofasi va fe'l-atvori o'z ifodasini topgan. Bu sohada folklorshunos olim O. Sobirovning to'plovchilik xizmati taxsinga sazovordir. "Kelinoy" dostoni haqida ko'pgina folklorshunos olimlarimizning fikri bor. "Kelinoy" dostonining mavjudligi, uning ko'p variantlarda yashayotganligi, kollektiv Mulki ekanligi, tematikasi va g'oyaviy yo'nalishi hamda tarixiy taqdiri darajasida turli xil muloxazalar aytilgan. Biroq, dostonning ko'p variantli va kollektiv ijod mahsuli ekanligi haqida bir xil fikrda bo'lsalar ham "Kelinoy" dostonlarining tematikasi va go'yaviy yo'nalishi bo'yicha tadqiqotlarimiz muloxazalarida hali-hanuz yakdillik yo'q.

Dostonning tarixiy asoslari va yaratilishi tomonidan chalkashroq xulosaga kelinadi yoki bir yoqlama tahlil etiladi. Buning sababi aniq. Yani: "Kelinoy" dostonlari mukammal to'planmaganligi, barcha variantlari to'liq o'rganilmaganligi ko'pchilikni har xil chalkashlikka olib kelgan. Bu tabiiy hol edi, Biz esa, ko'p yillik tajribalar, ayrim ustoz olimlarning fikrlari va qo'limizda mavjud bo'lgan, o'zimiz to'plagan faktlarga suyanib shunday xulosaga keldik. "Kelinoy" dostoni inqilobgacha dastlab xilma-xil, katta-kichik to'rtliklar xalq qo'shiqlari sifatida, keyinroq mayda va yirik epik voqealarni o'z ichiga olgan naqlar cho'pon va cho'lliklarning og'izdan og'izga o'tib xilma-xil variantlarni tashkil etgan. Bu hol el bilan hamisha Hamdard va hamfikir bo'lgan xalq baxshilarining diqqatini tortmasligi mumkin tortmasligi mumkin emasdi. Shunday qilib, Kelinoy haqida Surxondaryoning Sherobod tumanida katta shov-shuvga sabab bo'lgan qo'shiqlar va epik voqalar asosidagi naqlar qishloqma-qishloq, vohadan-vohaga tarqala boshlaydi. Hatto, Tojikiston va Turkmanistonning janubida yashovchi o'zbeklar orasigacha yetib boradi. U joylarda yashovchi shoir, baxshi, soqi kabi nomlar bilan xalq orasida mashxur bo'lgan ijodkorlar repertuarida doston shaklini ola boshlagan.

Keyinchalik 20-30-yillarda ham har qaysi shoir yoki baxshi umum "Kelinoy" motivi va yo'li bilan alohida-alohida asarlar yaratganlar, uni o'zi yaratayotgan geografik joy va shu yerda yashab o'tgan hamda yashayotgan go'zal qiz, kelinlar, yoki oshiq yigitlar nomi, hayoti va kurash yo'li bilan bog'lagan. O'z asarini boshqalardan farqlash uchun o'zgacha nomlar bilan ataganlar.

Nihoyat, kelinoy haqida qo'shiq va naqlardan tashqari uning "Kelinoy" dostoni shaklidagi har xil hajmda bir necha variantlari vujudga kelgan. Ushbu variantlarni tekshirishda shu narsa ma'lum bo'ldiki, ular birgina bosmachilik harakatiga qarshi kurash emas, balki yaratilgan davri talabi bilan mahkam bog'langan holda o'z ichiga oladi. Masalan, 20-yilgacha yaratilgan barcha variantlarda muhabbatda tenglik, tinch va erkin nikoh uchun kurash, mavzuyi yetakchi rol o'ynaydi. Keyingi 20-yillar davridagi bosmachilikka qarshi kurash mavzusi asosiy bosh mavzu hisoblanadi. Bu davr "Kelinoy" asarlari mamlakatimizda, shu jumladan "Qoraqum" dostoni turkumi bilan bir vaqtda yaratilgan. Shuningdek, huddi shu yillarda hatto 20-yillarning boshlarida sodir bo'lgan voqealarga bag'ishlanib yaratilgan dostonlar bor.

Ular Umir shoirning "Toshgul" Mamadrahim baxshining "Oytoshgul" va Chori baxshi Qo'ldosh o'g'lining "Qizlarxon" kabi asarlardi. Bu dostonlar mamlakat ichkarisidagi yot unsurlarga qarshi xotin-qizlar ozodligi uchun kurash mavzusiga bag'ishlangan "Kelinoy" tipidagi asarlardir. 20-yillarning oxiri va 30-yillarda ham prototiplar, tarixiy voqealar zamirida yangi asarlar yaratish tajribasi davom etdi. Bunga Eshqobil shoirning "Xonsuluv" va "Oysihat" yoki Abdulla shoirning "Ali va Jangil" dostonlari kiradi. 20-yillarda yaratilgan "Kelinoy" dostonining xalqchil variantlaridagi obraz yaratish usuli, epik qolip, an'anaviy formula hamda tayyor badiiy tasvir vositalaridan foydalangan holda, unga boshqacha mazmun bergan.

Asar kompozitsiyasidagi ba'zi motivlari o'zgacha baholangan. Xullas, y 20-yillar davrida yaratilgan xalqchil versiyaga qarama-qarshi reksion versiya bo'lib ko'rinadi. "Kelinoy" variantlarining yaratuvchisi haqida so'z borganda uning dastlabki birinchi ijodchisini hech kim aytmaydi. Hatto, doston shakliga kirgan, alohida nomlar bilan yuritilayotgan variantlarning kuylovchilari ham bu dostonini o'z ustozlariga olib borib bog'laydi. Biz esa, "Kelinoy" dostonlarini kimdan yozib olgan bo'lsak, shu dostonchining nomi bilan bog'ladik, xalos.

Xarakterli tomoni shundaki, har qaysi variantda ham bir-biriga o'xshamagan epik voqea, biroq umumiylikka ega bo'lgan tasvirlarni eshitish mumkin. "Kelinoy" dostonlarining tarqalishi masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, avvalo to'rtlik qo'shiq va naqlari tariqasida oshiq yigitlar aniqrog'i cho'pon-cho'lliklar orqali ovuldan-ovilga o'tgan. Keyin shoirlar repertuaridan joy olgan. Ular sherobod tumani va mashhur yuzboshi Sherna nomi bilan bog'lanadi.

Sherna va Alim yuzboshilardan keyin ularning shogirdlari repertuaridan ham doston shaklida o'rin ola boshlaydi. xullas og'izdan og'izga o'tib, ko'pgina o'zgarishlarga uchragan, kuylovchining poetik tuyg'usi bor yo yo'qligiga qarab goh kengayib, goh buzilib hozirgi vaqtgacha yetib kelgan. Masalan, Sherobod tumanida yashovchi Sherna shoirning qizi, Mardonqul yuzboshining xotini o'z otasi haqida so'zlab, otam:

Chirchiratib chiydingi,  
Do'ngdan tikkan uyingdi.  
Eshikka chiqqan Oykelin,  
Ulpating ko'rsin bo'yingdi...

Deb qo'shiq aytar edi, deb eslaydi.

Barcha xalq qo'shiqlari hamda Umir va Xayin shoirlarning "Ulug'oy" Rajab va Bo'ri baxshilarning "Izzatoy" asarlari, nashr etilgan "Kelinoy" dostonining 80-101-betlaridagi 254 misra lirik parcha, Zohir shoir "Kelinoy" dostonining Umir baxshi tilidan keltirilgan barcha-she'riy qismlarni diqqat bilan kuzatsangiz, ularda o'z oshig'iga yetolmagan yigit o'tmishi ifodalanadi.

Bu lirik parchalarda go'zal va iffatli kelinoy hamda tengsiz nikoh, chirkin patriarxal feodal urf-odatlar oqibatida Kelinoyning vasiliga yetisha olmagan oshiq cho'ponning obrazi yaqqol gavdalanadi:

Saksovlning o'tini,  
Achchiq ekan tutuni,  
Hech bandaga solmasin  
Kelinoyning o'tini...  
Kimki meni qistasa,  
Ayt, deb kelin g'ussasin;  
Aytib ado bo'lmaydi  
Kelinoyning qissasin.

Ushbu misrlarda o'z sevgisiga yeta olmagan, uni faqatgina orzu qilgan, xijron alami saksovlning achchiq tutunidek uning qalbini achitgan, unga bardosh berolmay kecha-kunduz qon yutgan, ko'ngli siniq, baxtsiz cho'ponning siymosi gavdalanadi.

"Kelinoyni" qo'shiqlaridagi oshiq cho'ponning ichki dunyosini ifodalovchi parchalar ham, oshig'ini butun borlig'i bilan maftun etgan o'zbek qizi haqidagi to'rtliklar ham ijro etilish davri va maqsadiga qarab intepretatsiyaga uchragan. Masalan, xalq qo'shiqlaridan foydalangan Qodir shoir "Norguloy" dostonida oshiq cho'pon-So'ltoq tilidan:

Sherobodning shertasi,  
Bo'kirishadi bo'tasi.  
Beraman deb bermaydi,  
Norguloyning otasi.

Desa, nashr etilgan "Kelinoyni"da oshiq cho'pon:

Yona buloqning yonasi,  
Pista bodomning tanasi,  
Beraman deb bermaydi  
Kelinoyning onasi.

Deb shikoyat qiladi. Shu ikkala to'rtlikda asosan mazmun bitta. Nashr etilgan to'rtlikda ma'shuqa shaxsi noma'lum kelinga qaratilgan, "Norguloy" dostonida aniq shaxs Norguloyning ismi qayd etiladi.

Ya'ni she'r formasidagi so'zlar o'zgargan, xolos. Birinchi va ikkinchi misralarning har xil formada o'zgarib kelishi tabiiy, chunki, har bir baxshi va ijodkor personajning kayfiyatini yoki unga o'z munosabatini bildirishda xilma-xil tasviriy formalardan foydalanaveradi. Ikkinchi tomondan, Kelinoy obrazining tasvirini ifodalash uchun berilgan tayyor misralardan personajning

kayfiyatiga qarab, o'z simpatiya va antipatiyasiga qarab uning ma'nosini boshqacha etib o'zgartirib ham yuboraveradi.

Uchinchi tomondan, baxshining obraz yaratish iqtidoriga qarab, ma'no buzilaveradi ham. Masalan, Qodir shoirning "Norguloy" dostonida:

Inak sovadi iydirip,  
Choch bovin jerga tiydirip.  
Birovni sayla Norguljon  
Ketma hammani kuydirip.

Desa, nashr etilgan "Kelinoy" da:

Sigirini sog'ar iydirib,  
Zulfini erga tiydirib,  
Kelinoy uydan chiqadi  
Ko'rgan oshiqni kuydirib

Deb tasvirlanadi.

Bu ikkala to'rtlikda ham xalq qo'shiqlarining asosiy formasi, vazni saqlanadi. Biroq, ikkalasida ikki xil ma'no bor. Agar nashr etilgan asardagi Kelinoyning uydan chiqib bir ko'rinish manzarasi oshiqlarning qizib turgan yuragiga o't qo'yib yuboradi deyilgan ma'noni bildirsa, "Norguloy" dan keltirilgan parchada asar qahramoniga xos obrazlilik bor. Chunki, Norguloy o'z husni, kamoli bilan hamma oshiqlarni lol qilgan. Ayrimlari uning ishqida qo'yini boqib abadiy cho'pon bo'lib qolgan. Shulardan biri So'ltoq nomli yigit ham uning atrofidan ketolmay Norgul ishqida mast bo'lib yuradi. Norguloy bo'lsa unga ahamiyat bermaydi. Nihoyat, So'ltoq tik borib Norguloyga o'z hislarini bayon etadi. U hammaniki emas, bittaniki bo'l deb iltijo qiladi. Bundan tashqari ikkalasida ham kelinning sigir sog'ayotgan payti kartinasi beriladi. Ammo, nashr etilgan asardagi manzara haqiqatga to'g'ri kelmaydi.

Har qanday qizning ham Zulfi chekkasidan pastga tushmaydi. Bu o'xshatma dostonlarda soch, sochbog' yoki zulpakka qiyoslanadi. Shuning uchun ham "Norguloy" tekstidagi sochbog'ni yerga tegdirib, sigirni eydirib sut sog'ayotgan Norguloy kartinasi ko'z oldimizda gavdalanadi. "Kelinoy" qo'shiqlariga xos go'zal to'rtliklar keying davrlarda boshqa-boshqa syujetli asarlarning yuzaga kelishiga ham asos bo'ladi. Biroq, bu variantlarning har qaysisi ma'no o'zgarishi bilan har xil forma o'zgarishiga ham uchraydi. Chunki, ularga davr talabi bilan o'zgarishlar kiritiladi. Bu hol dostonlardagi obrazlar talqinida ham inson obrazini yaratish va voqealarni bayon etish usulida ham ko'rinadi. Ammo, bular an'anaviy dostonlardan tubdan farq qiladi. Masalan, yangi dostonlardagi voqea va inson obrazlari hayotdagi real va tarixiy voqealar hamda shaxslarning obrazidir. Umr baxshi variantidagi voqea Angor, Sherobod va Boysun hududida, Qodir baxshi variantidagi voqea esa Dehqonobod, Turkmanistonning sharqiy-janubi tomoni Sherobod hududida

bo'lib o'tadi. Dostonning birinchisida asarning bosh qahramoni "Boyligi bilan bitgan, taltayib ketgan, bir xo'plasa darani yutgan, daryo suvini quritgan, Angor qal'adan Darbandgacha yerni damiga tortgan "Xajakarim to'qsaba"ning qizi Ulug'oy, ikkinchisida "O'tgan zamonda, Oqtosh tog'idan tubanda, Oqbet tog'ining ostida Tog'aytemirning ustida, Chalaning qabatida, tortuvli urug'i"dan bo'lgan Shukurali boyning qizi Norguloy deb nomlanadi. Ikkala variantda ham qizlar nihoyatda go'zal, aql va idrokda, xulq va atvorda yagona, og'ir, shijoatli, kamtarin, xushbichim va kuchli ham baquvvat-alp qiyofasida, ikkala qiz shu xususiyatlari bilan yigitlarning jigaridan urgan.

Hatto, baxshilar ham ular haqida termalar to'qiydi. Umir baxshi variantida:

Kelinoy, kelinoy deyishadi,

Kelinoy ipak eshadi,

Shonadagi chochbovlari,

Tovoniga tushadi.

Chekkadagi zulpaklari,

Siynaga tirmashadi.

Bir ko'rgan bo'z bolalar

Ortidan ergashadi...

Kelinoy ham huriday,

Oq tanganing nuriday.

O'ltirishi, bezagi,

Chimildiqning to'riday,

Yarim kecha ko'ringan,

Quyiqopdagi pariday,-deb qiz portretini chizadi.

Qodir Baxshi variantida:

Otlardi chopsang qir oshar,

Qizlar chochini tarashar,

Norguloy chiqsa eshikka,

Yulduzlar ko'zi qamashar.

Qizlar qo'tondan qiy olar

Qiy borip tomdan joy olar,

Norgul chiqsa eshikka,

Kun turolmay uyalar.

Shunday qilib ikkalasi ham:

Xushro'ylikda o'tkardi,

Qo'ng'irotning eliga.

Hatto:

Chorboq qizlari kelip,  
Suv qo'yolmas qo'liga.  
Ariqda suv mavj urar,  
Elpingan shamoliga.

Umir baxshivariantida qatori Ulug'oyga Uzoq dehqon oshiq, Qodir baxshida esa Norguloyni So'ltoq sevadi. Ikkala oshiq ham o'z sevishganlariga erishmoq uchun intiladilar, kurshadilar. Nihoyat biri kelinni, biri qizni olib qochadi va ularga uylanishida. Demak, ikkalasida ham asosiy g'oya erkin muhabbat, ixtiyoriy nikoh masalasidir. Ikkala dostonida ham feodal jamiyatga xos bo'lgan chirkin ijtimoiy tengsizlik, chirkin patriarxal urf-odatlar, qoralanadi. Ikkala asar qahramonlari Uzoq dehqon bilan So'ltoq eski qarshi o'z erki va huquqi uchun kurash olib boradilar. Uzoq dehqon Ulug'oyni olib qochib, uning eri Annabekni o'ldirish bilan cheklanadi.

Ulug'oyga uylanib maqsadiga yetadi. So'ltoq esa, Norguloyga sovchi kelganligini sezib, qizni olib qochadi. So'nga qizning tadbirkorligi tufayli ota-onasi, qarindosh-urug'lari bilan yarashadi, murodi hosil bo'ladi. Bu hol birinchidan an'anaviy dostonlardagi kabi optimistik ruhini ifodalasa, ikkinchidan o'tmish feodal jamiyatning inqiroziga yuz tutib, o'z umrining oxirgi damlarini yashayotganligidan darak beradi. Tekshirilayotgan dostonlarning har ikkalasi ham bir mavzuga bag'ishlangan. Ulardagi asosiy g'oya ham bir xil. Ularda o'tmish feodal tuzumga nisbatan norozilik ifodalanadi, tinch va erkin yashash, sevish va sevilish uchun kurash g'oyasi olg'a suriladi. Norgul ham Ulug'oy ham tashqi qiyofa jihatdan bir xilda go'zal qiz. Ikki asar voqealari sodir bo'lgan joy ham Sherobod, dehqonobod, Boysun hududlari. Asarda bayon qilinayotgan zamon ham ayni davr. Ikki qizning dovrug'i ham Sheroboddan Turkmanistongacha, Buxoro va Tojikiston tomon xalq orasiga keng tarqalib ketgan.

## REFERENCES

1. Afzalov M. O'zbek xalq shoirlari//Sharq yulduzi, 1946.
2. Mirzayev T. O'zbek dostonchiligi va "Alpomish" dostonining Bekmurod Jo'raboy o'g'li varianti haqida // Alpomish. Doston. Bekmurod Jo'raboy o'g'li varianti. -T.:1999.-5-bet.
3. Murodov M., Ergashev A. Alpomishnoma. Surxondaryo talqini. -T. Mehnat., 1999. -300-bet.
4. Зарифов Х. «Фолклор ва археология материалларини қиёсий ўрганишга доир», 1958.
5. Путилов Б.Н. Эпической сказительство.-М.,1997.-стр.80.
6. Ю. Новиков. Изд-во Вильнюсск. пед. ун-та, 2007; Т. 2. Вильнюс: Изд-во Вильнюсск. пед. ун-та, 2009; Т. 3.